

---

“Tashabbusli byudjet” loyihasi doirasida “Yangi ariq” mahallasidagi ichki yo‘llar ravon bo‘lmoqda

Qo‘sh tepa tumanidagi “Yangi ariq” mahalla fuqarolar yig‘inida 824 ta xonadonda 4780 nafar aholi istiqomat qiladi. Mahallada 9 ta ko‘cha mavjud.

“Tashabbusli byudjet” loyihasining joriy yilgi ikkinchi bosqichida mahallaning ta‘mirga muhtoj bo‘lgan ichki yo‘llarni ta‘mirlash bilan bog‘liq tashabbuslari g‘olib deb topilgan edi.

Ayni kunlarda, tashabbus natijasida mahallaning Navnihol, Yangi bo‘ston hamda Yangi bog‘ ko‘chalarining 3000 metr ichki yo‘llarida astfaltlashtirish ishlari olib borilmoqda.

2024-11-25 09:19:26